

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY  
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR**  
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari  
to‘plami*  
**(2025-yil 21-22-noyabr)**

**JIZZAX-2025**

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 599-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohaslarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

## KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida hududlar va hatto mintaqalarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan bir-biriga integratsiyalashib borayotganligini kuzatib turibmiz. Bu jarayonda jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlash ustuvor omilga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ta‘lim tizimiga yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalarning tadbiq qilinishi va rivojlantirilishi davr talabidir. Hozirgi davr, ya‘ni “Axborot asri” har sohada axborot texnologiyalarini keng qo‘llash talabini qo‘yar ekan, mazkur yo‘nalishda chuqur bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgan yosh kadrlarni tarbiyalashga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Zamonaviy ta‘lim jarayonini rivojlantirish maqsadida mediata‘lim dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlaridagi ilmiy markazlar tomonidan o‘rganilmoqda. Mediata‘limdan ko‘zlangan maqsad esa yosh avlod mediasavodxonligini shakllantirishdir. Shu boisdan ham nufuzli ilmiy tadqiqot markazlarida jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlashda mediata‘limning imkoniyatlari va raqamli OAV tushunchalarini ilmiy jihatdan yoritish va tadqiq qilish ko‘lamini aniqlashga alohida e‘tibor qaratilgan. Demak, aytish mumkinki, boshqa sohalar qatori aniq va ijtimoiy fanlar tizimida rejalashtirilayotgan ilmiy tadqiqot maqsadlari, usullari va natijalarini O‘zbekiston mediata‘lim tizimiga tadbiq qilish kelajakda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashda o‘z samarasini beradi. Ayniqsa 2019-2021 yillarda xalqaro Internet axborot tarmog‘ida milliy kontentni rivojlantirish kompleks dasturi tasdiqlanishi e‘tiborga molik. Mazkur dasturda milliy kontent va IT-startaplar rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash davlat fondini tashkil qilishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Bu borada zamonaviy innovatsion tadqiqotlar, ularning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari muhim ahamiyatga ega desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan bu yo‘nalishdagi islohotlar samarasini yaxshilash, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha o‘z yechimini kutayotgan muammolar yuqori salohiyatli ilmiy maktablar o‘rtasidagi muhokamalar, munozaralar va ilmiy ma‘ruzalar jarayonida o‘z yechimini topadi.

Anjumanda ilg‘or fundamental va amaliy tadqiqotlarning natijalari, mamlakatimizning intellektual nufuzini oshirish hamda izlanishlar natijasini tijoratlashtirish masalalari muhokama qilinadi.

Shu bilan birgalikda anjumanning asosiy maqsadlaridan biri, axborot kommunikatsiya texnologiyalari va dasturiy ta‘minotlarini yaratishning ilmiy asoslarini takomillashtirish va ularni murakkab tizimlarni boshqarishda hamda ta‘lim va ilmiy tadqiqot jarayonlarida joriy qilishning ilmiy, uslubiy va amaliy takliflarni ishlab chiqish, respublikamizda pedagogik kadrlar tayyorlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash istiqbollari hamda iqtisodiy sohalarida amalga oshirilgan islohotlarni yoritishdan iborat.

Anjumanning asosiy vazifasi, muhokama qilingan dolzarb muammolar va ularning yechimlari asosida O‘zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda ishlab chiqarish korxonalarini muammolarini yechishga doir

## O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ TURIZMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

**Kamolova Sabrina Alisher qizi**

*O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali Psixologiya kafedrasida o‘qituvchi-stajori*

**Annotatsiya:** Maqolada O‘zbekistonda qishloq turizmining shakllanish jarayonlari hamda mamlakatimiz hayotida tutgan o‘rni haqida so‘z boradi. Shuningdek, mazkur sohada xalqaro hamda milliy talablarning mazmuni nimalardan iboratligi yoritilgan. Shuningdek, mazkur sohada faoliyat yuritishning nazariy hamda amaliy asoslari keltirilgan. Mavjud qishloq turizmi nuqtalari bilan birgalikda ushbu faoliyatni amalga oshirish imkoniyati bo‘lgan hududlar tavsiya etilgan.

**Kalit so‘zlar:** qishloq turizmi, mehmon uylari, turizm mahallasi, etnoturizm, mezonlar.

### **Kirish**

Bugungi kunda xizmatlar sohasi tushunchasi bevosita kishilarning madaniy dam olishi bilan birgalikda yuritilmoqda. Dam olish esa o‘z o‘rnida turizm bilan chambarchas bog‘liq jarayonga aylandi. Turizm insonlarning ma‘naviy dam olishi, jismoniy tiklanishi, yangi manzillar bilan tanishishi, o‘ziga xosliklardan bahramand bo‘lish imkoniyatini taqdim etuvchi soha hisoblanadi. Turizm ko‘p tomonlama samaraga ega bo‘lib, bir qator mintaqada destinatsiyalar iqtisodiy rivoji, aholi bandligining o‘shishi, fuqarolarning hordiq chiqarishga bo‘lgan ehtiyojlarini yanada to‘la qondirilishiga zamin yaratadi. Insonlarning turizmga bo‘lgan talabi esa, bu sohani boyitib boradi. Ya‘ni, biron bir soha o‘z-o‘zidan rivojlanib qolmaydi, buning uchun u bir qancha bosqichlardan o‘tishi lozim hisoblanadi. Bu bosqichlar esa, turli sohalarida ularning ichki xususiyatidan kelib chiqqan holda bir biridan farqli kechadi.

Xususan, qishloq turizmi ham o‘zining rivojlanish bosqichlariga hamda tendensiyalariga ega, albatta, bu bosqichlar mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib belgilanadi hamda o‘tish davrini hosil qiladi. Turizm ham respublikamiz iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport va boshqa makroiqtisodiy tarmoqlar qatori o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lishi uchun yetarlicha resurslarga ega. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari bo‘yicha Markaziy Osiyo davlatlari ichida yetakchi hisoblanadi. Respublikamiz tarixiy, arxeologik, arxitektura, san‘at va boshqa turistik resurslarga boy hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatimizning betakror tabiati, tog‘ va tekisligi, daryolari, cho‘l va vaholari, turli landshaft zonalari asosiy rekreatsiya resurslaridir. Mamlakatimizda yosh tarmoq hisoblangan turizm, kundan kunga rivojlanmoqda. Bu esa, ko‘pgina ish o‘rinlari ochish imkoniyati mavjudligini bildiradi. Ayni kunlarda respublikamizda iqtisodiy faol aholining turizm sohasida bandlik ulushi juda ham oz. Bu borada qishloq aholisining ishtiroki umuman kam.

Qishloq turizmining O‘zbekistonda shakllanishi bevosita mamlakatning tabiiy geografik imkoniyatidan kelib chiqqan bo‘lib, bunday imkoniyatga ega bo‘lgan hududlar ko‘pgina tumanlarda mavjud bo‘lgan. Qishloq turizmi dengiz kurortlari

kabi katta hajmlar bilan raqobatlasha olmasa ham, turizm sohasida muayyan o‘rin tutadi. Uni o‘rganib rivojlantirish alohida e‘tiborga loyiq. Respublikamiz qishloq turizmi yo‘q darajada. Qishloqdagi aholining kamligi, tabiatning tozoligi, ekologik jihatdan qulayligi tufayli uning kelajagi bor. Aytish joizki, qishloqlarda turist bo‘lib turish, kurort zonalariyoki mashhur turistik markazlarga nisbatan ancha arzon. Hamma ham qimmatboho turistik markazlarda dam ololmaydi, shu jihatdan qishloq turizmni rivojlanish katta ahamiyatga ega.

### **Asosiy qism**

Ishlab chiqarish va unga aloqador sohalar ichida dunyo mamlakatlarining iqtisodiyoti asta sekinlik bilan xizmatlar turini oshirish bilan daromadlarni muqobillashtirish jarayoniga moslashib bormoqda. Shu jumladan, hozirda xizmatlar sohasi ichida o‘zining ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy-madaniy, savdo va ishlab chiqarish shuningdek, siyosiy jarayonlarda namoyon bo‘la olishi bilan zamonaviy iqtisodiyotda o‘z o‘rnini egallab borayotgan soha bo‘lib, turizm tarmog‘i hisoblanadi. Turizm bugungi kunda ko‘pgina davlatlarda o‘zining turli shakllariga ega bo‘lib, mazkur davlatlar hayotida ajralmas sohaga aylanib ulgurgan. Mamlakatimizda yosh tarmoq hisoblangan turizm, kundan kunga rivojlanmoqda. Bu esa, ko‘pgina ish o‘rinlari ochish imkoniyati mavjudligini bildiradi. Ayni kunlarda respublikamizda iqtisodiy faol aholining turizm sohasida bandlik ulushi juda ham oz. Bu borada qishloq aholisining ishtiroki umuman kam.

“Qishloq turizmi bu yangi, zamonaviy tushuncha hisoblanmaydi. Sanoat markazlashgan shaharlar va ishdagi turli qiyinchiliklardan biroz bo‘lsa ham chetda, qishloq manzarasi, tabiat qo‘ynida bo‘lish va maroqli dam olish 19-asrdan boshlab asta-sekinlik bilan rivojlangan. Qishloq turizmi bu shahardan uzoqda joylashgan maskanlar (asosan qishloqlar) ga borish, u yerlarni ko‘rish, fermerlar bilan ularning oilasi bilan yaqin bo‘lish, fermerlik faoliyatini o‘rganish va shu faoliyat bilan shug‘ullanish, qishloqlarda, ochiq osmon ostida tabiat qo‘ynida maroqli dam olishdir.”<sup>116</sup> Hozirgi kunda jahon tajribasida turizmning qishloq turizmi shakli keng rivojlanmoqda. Qishloq turizmini mamlakatimizda rivojlanishi istiqbollari porloq hisoblanadi. Chunki, mamlakatimiz agrar-industrial xo‘jalikka ega bo‘lib, asosiy mehnat resurslarimiz qishloq xo‘jaligida band. Undan tashqari, mamlakatimiz rekreasiya resurslariga boy hisoblanib, rekreasiya faoliyati tarmoqlarini rivojlantirish mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tuvchi mamlakatlar uchun moliyaviy resurs manbalari o‘ta zarur hisoblanadi. Shu jihatdan oladigan bo‘lsak, qishloq turizmi yuqori daromat keltiruvchi xizmat ko‘rsatish sohasi hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti asosan sanoat ishlab chiqarishi va xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishga ega holda ayni vaqtda mamlakat yalpi ichki mahsulotlarini tashkil etadi. Xizmat ko‘rsatish sohasi, yaratilgan tovar va moddiy buyumlarga xizmat ko‘satuchi jarayonlarni ifodalashi kabi qarashlar bir qancha iqtisodchi olimlar tominidan ilgari surilgan nazariyalarda o‘z aksini topgan. Ammo zamonaviy iqtisodiyotda bu qarashlar o‘zining yangi bosqichiga ko‘tarildi hamda butunlay yangi mahsulot sifatida xizmat ishlab chiqarish tushunchasi fanga kirib keldi. Bu tushuncha bevosita

<sup>116</sup> M.Qobulova, I.Ergashev, A.Ergashev —Mintaqaviy turizm va turistik resurslar

insonlarning madaniy harakatlari bilan yuksalib alohida tarmoq sifatida shakllandi. Bunday jarayonlarning dunyoda shakllanishi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi va kishilar daromadining oshishi bilan ham izohlanadi.

“Qishloq turizmi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- qishloq joylarda aholida kategoriya odamlar uchun ularning pul mablag‘lari miqdoriga qaramay, masalan, oilaning an‘analariga ko‘ra;
- vrach maslahatiga binoan qishloq iqlim sharoitlarida sog‘lomlashtirishni olib borishga ko‘ra;
- tabiat bilan yaqinlik, ko‘proq vaqtni toza havoda o‘tkazish maqsadiga;
- ekologik toza va arzon mahsulotlar bilan oziqlanish mumkinligi uchun;
- qishloq xo‘jaligi ishlari bilan band bo‘lish, ishlash uchun real imkonlar borligi;
- hayot uchun zarur bo‘lgan kerakli narsalarni topish maqsadida minglab kilometr masofani bosib o‘tirmaslik uchun;

boshqa ijtimoiy guruhidagi odamlar bilan muloqotda bo‘lish, ularning madaniyati, urf-odati bilan tanishish, bayramlari va o‘yinlarida qatnashish imkoniyatini mavjudligi.”<sup>117</sup>

Birinchi navbatda, bunday imkoniyatga ega hududlar o‘rganilganda hududda faoliyat yurituvchi mahalla yig‘inlarining ham murojaatlari ko‘rib chiqiladi hamda xizmat ko‘rsatish imkoniyatlarining mavjudligiga ko‘ra turizm qishloqlari, turizm mahallalari, hamda ovullari faoliyati rasman yo‘lga qo‘yilib kelinmoqda. Bu borada “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5781-son Farmoni bilan 2019-yil 1-noyabrdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi eng yuqori turizm salohiyatiga ega bo‘lgan fuqarolar yig‘inlari (shaharcha, qishloq, ovullar hamda shahar, shaharcha, qishloq va ovullarning mahallalari) ro‘yxatini shakllantirishi hamda ushbu fuqarolar yig‘inlari hududlarida 20 tadan kam bo‘lmagan oilaviy mehmon uylari tashkil etilganda va turistlar uchun kamida besh xil xizmat turlari (yashash va/yoki ovqatlanish bo‘yicha xizmatlardan tashqari) ko‘rsatilgan taqdirda ularga “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomini berishi belgilangan. Shuningdek yana mazkur farmon bilan “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” yoki “Turizm ovuli” maqomiga ega fuqarolar yig‘inlari mahalliy aholisini turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tayyorlash va o‘qitishni doimiy asosda tashkil etish ham ko‘zda tutilgan.”<sup>118</sup>

### **Material va metodlar**

“Turizm sohasida yuritiladigan va barcha mazkur soha subyektlari tomonidan e‘tirof etiladigan umumiy tushunchalar qishloq turizmida ham birdek amal qiladi. Xususan, turizm mahsulotining- turistning sayohatlari davomida uning ehtiyojlarini qondirish uchun mo‘ljallangan turizm xizmatlari, shu jumladan turar joy, ovqatlanish, transport, ekskursiya va maslahat xizmatlari, ishlari va mahsulotlari majmui ekanligi, turist atamasining- vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi)

<sup>117</sup> M.Qobulova, I.Ergashev, A.Ergashev —Mintaqaviy turizm va turistik resurslar

<sup>118</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 30.04.2022 yildagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. www.lex.uz

manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda vaqtincha bo‘lish mamlakatiga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan ketma-ket o‘n ikki oygacha bo‘lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs hisoblanishi yoki ekskursant deyilganda- vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyida) tunab qolmasdan yigirma to‘rt soatdan oshmaydigan davrda sayohat qiluvchi jismoniy shaxsligi singari tushunchalar kiritib o‘tilgan.”<sup>119</sup>

Qishloq hududlarining aholisi jihatidan hamda uning etnik tarkibi asosida rivojlanish hamda tarixiylik jihatlari o‘zgacha bir ahamiyatga ega ekanligi mazkur mintaqa hududlarida qishloq turizmi sohasining amalga oshishida birlanchi, mavjudlik tamoyilini yuzaga chiqaradi. Bu jarayon bilan rasman shug‘ullanish esa davlat tomonidan nazoratga olingan hamda buning huquqiy mezonlari bilan birgalikda turistik qishloqlarning ayni maqomda ish yuritishi xususida ham davlat ilmiy asoslari mavjud. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi 433-son qarorida “Turizm sohasida mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida” Nizomiga ko‘ra, Fuqarolar yig‘inlariga “Turizm mahallasi”, “Turizm qishlog‘i” va “Turizm ovuli” maqomini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq bugungi kunda respublikamizda ayni tartibdagi subyektlar faoliyat yuritib kelishmoqa.

Fuqarolar yig‘iniga turizm mahallasi maqomini berishdan asosiy maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:

- fuqarolar yig‘inida azaldan saqlanib qolgan moddiy va madaniy merosini, urf-odatlari va turmush tarzini saqlash, ilgari surish va targ‘ib qilish;
- xorijiy va mahalliy turistlarni keng jalb qilish;
- turizmni barqaror rivojlantirish;
- turistlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;
- mahalliy aholining madaniyati va an‘analarini ommalashtirish;
- turizm mahallasining ekologiyasini hamda tabiiy boyliklarini asrash va yaxshilash;
- fuqaralar yig‘ini hududida istiqomat qiluvchi fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash;
- fuqarolar yig‘ini hududida yangi ish o‘rinlarini yaratish;
- doimiy ravishda turizm xizmatlari sifatini belgilangan talablarga muvofiqlashtirish;
- turizm xizmatlarini ko‘rsatishda qonun talablariga rioya qilish

Fuqarolar yig‘ini turizm mahallasi maqomini olishi uchun quyidagi talablar va shartlarga javob berishi lozim:

a) fuqarolar yig‘ini hududida xorijiy va mahalliy turistlarni qabul qilish uchun kamida 20 ta oilaviy mehmon uylarining mavjudligi;

b) fuqarolar yig‘ini hududida turistlarga kamida 5 ta sifatli turistik xizmatlarni taqdim etish (turar joy va (yoki) ovqatlanish xizmatlaridan tashqari);

<sup>119</sup> Usmonov S. O‘zbekistonda qishloq turizmi. Journal of Economy, Tourism and Service Vol. 2, No. 12, 2023 ISSN:2181-435X. 55-b

c) fuqarolar yig‘ini hududida mahalliy ishlab chiqarilayotgan esdalik sovg‘alari mahsulotlarini (kamida bitta savdo nuqtasi) sotish shoxobchalarini tashkil etish;

d) fuqarolar yig‘ini hududida turizmning quyidagi turlaridan birini tashkillashtirish: ekologik (geoturizm); agroturizm (qishloq); etnografik; madaniy va tarixiy;

e) fuqarolar yig‘ini hududida turistik ko‘rgazma obyektlarining mavjudligi;

f) fuqarolar yig‘ini hududida turistlar (ekskursantlar) xavfsizligini ta‘minlash; yo) turistlar uchun yaratilgan qo‘shimcha ko‘ngil ochar shart-sharoitlar (otlar, tuyalar, velosipedlar, kvadratsikllar, qayiqalar, katamaranlar va boshqalar ijarasi);

g) turizm to‘g‘risidagi normativ hujjatlarga majburiy rioya qilish;

h) zarur infratuzilmaning mavjudligi (avtomobil yo‘llari, transport aloqasi, aloqa vositalari, ichimlik suvi, elektr energiyasi, Internet, sovuq mavsumda isitish tizimi);

i) hududda kuzatilishi mumkin bo‘lgan tabiiy hodisalar va xavfli hududlar to‘g‘risida ma‘lumotlarning mavjudligi;

j) yil davomida turizm xizmatlarini ko‘rsatish imkoniyatining mavjudligi;

k) zarur ko‘rsatkichlarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida mavjudligi;

l) birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish imkoniyatining mavjudligi;

m) bosma shaklda turistik obyektlarni joylashish joylari xaritasi mavjudligi;

n) tashrif buyurishdan oldin turistlar tomonidan oilaviy mehmon uylari uchun joylarni bron qilish va fuqarolar yig‘ini hududida ko‘rsatiladigan turistik xizmatlarga buyurtma berish imkoniyatining mavjudligi;

fuqarolar yig‘ini to‘g‘risida barcha uchun qulay joyida ma‘lumot materiallari (varaqaalar, bukletlar, risolalar, xaritalar va boshqalar) mavjudligi.

Turizm mahallasi maqomini olgan fuqarolar yig‘inining aholisini tayyorlash, ushbu hududni milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida targ‘ib qilish, shuningdek, “Turizm fuqarolar yig‘ini”ning go‘zal obyektlari to‘g‘risidagi materiallarni xorijiy va mahalliy sayyohlik ko‘rgazmalarida e‘lon qilish xarajatlarini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi turizmni qo‘llab-quvvatlash Jamg‘armasi budjetdan tashqari mablag‘lari, xalqaro moliyaviy institutlar va tashkilotlarning xayriyalari, yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek qonun bilan ta‘qiqqlanmagan boshqa manbalar mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. mahalliy davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda turizm sohasini, shuningdek, fuqarolar yig‘inlari bilan birgalikda turistik xizmatlar ko‘rsatishni yaxshilash va turizm mahallasi hududida infratuzilmani rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqadi.

Yuqorida keltirilgan talablar hamda mezonlar asosida bugungi kunda respublikamizning turli hududlarida turizm qishloqlari faoliyat yuritib kelishmoqda hamda yangi manzillarda ham ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “bugungi kunda Samarqand viloyatida turizm qishloqlari 18 taga yetgan. Jumladan, Urgut tumanida joylashgan Tersak qishlog‘i, Payariq tumanida “Choshtepa”, Qo‘shrabot tumani “Pangat”, Samarqand tumani “Konigil”, Nurobod tumani “Oqsoy” qishloqlari shuningdek, Urgut tumanidagi Bahrin, Beshkon, Yetti uylik, Ipak yo‘li, Kenagas, Omonqo‘ton, So‘fiyon, Xo‘joyduq, Qoratepa, Chor-chinor, Samarqand

shahri “Sharq” MFYlarida turizm mahallalari tashkil etilgan. Mazkur jarayonlarda esa xalqarolashuv jarayonlarining ham muhim ekanligi barchaga ma‘lum. Ko‘pgina mamlakatlarda turizmning bu sohasi ichki turizm sifatida qaralsa yana ayrim davlatlarda bu soha unga tarmoq hisoblangan agoturizm, madaniy turmush kechirish hamda hunarmandchilikning qadimiy tarixiy an‘analarini o‘zida aks ettirishi bilan etno turizm, shuningdek, taomlanishning xilma xilligi hamda milliy oshxona tizimlarining mavjudligi bilan gastro turizm bilan ham bog‘liq holda tadbiq etishadi. Bu kabi masalalar o‘rganilyotgan hududda turizm sohasining rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.”<sup>120</sup> Ya‘ni rivojlangan soha o‘zida turli qism tarmoqlarning kelib chiqishiga olib keladi degan nazariyani ham keltirishimiz mumkin. Qishloq joylarida turizmni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirkorlik faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qishloq hududlarini barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi.

“Xususan, qishloq joylarida infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirishda, qishloq aholisi turmush darajasini oshirishda, mahalliy aholi daromadini o‘stirishda, yangi ish o‘rinlarini yaratishda, madaniy urf-odatlar va milliy an‘analarni qayta tiklashda, shuningdek, atrof-muhitni himoya qilishda qishloq turizmi muhim rol o‘ynaydi.”<sup>121</sup> Qishloq turizmi yuqori rivojlangan davlatlarning ham shu asoslarga ko‘ra o‘z mezonlari qabul qilingan bo‘lib quyida ular haqida ma‘umotlar keltirilib o‘tiladi.

“Italiya qishloq turizmi bo‘yicha yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda real daromad olish bo‘yicha Yevropada eng oldingi o‘rinlardan birini egallab, ushbu faoliyat turidan o‘rtacha yiliga 350 mln. AQSH dollari miqdorida foyda oladi. Shuningdek, qishloq turizmi atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatni asrashda turli xil vositalarni topish imkoniyatini yaratadi. Ko‘pchilik davlatlarda milliy qishloq landshaftlarini yaratish va saqlashda turizmning ushbu faoliyat turi muhim ahamiyat kasb etadi.”<sup>122</sup> Masalan, Shveysariya go‘zal Alp tog‘larining yaylovlari, gollandlarning tegirmonlari va kanallari, Italiyaning eski parklari va villalarini saqlashda qishloq turizmining roli katta bo‘ldi. Rivojlangan xorijiy davlatlarda qishloq turizmi —aralash va - sof shakllarga ajratiladi.<sup>123</sup>

Birinchisi, ya‘ni qishloq turizmini -aralash shaklida chorvachilik, mevasabzavot etishtirish bilan shug‘ullanadigan fermer xo‘jaliklari qo‘shimcha faoliyat sifatida sayyohlarni qabul qilishadi. Fermer xo‘jaliklarining ushbu faoliyat turidan oladigan daromadi umumiy daromadning 25 foizini tashkil qiladi. Bu mablag‘larning katta qismi uylar qurish, intererlar yangilash, mehmonlarda sharoit yaratish uchun sarflanadi. Ikkinchisi, ya‘ni- sof) shaklida faqat turistlarga xizmat ko‘rsatish hisoblanadi (asosan, qishloq uylarida mehmonxona xizmatlari va boshqa xizmat turlari ko‘rsatiladi). Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, qishloq turizmi

<sup>120</sup> Usmonov, S., Boqibilloev, U.J. (2023). O‘zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari va yo‘nalishlari. Umumjahon fanlari bo‘yicha ta‘lim tadqiqotlari, 2 (9), 272–277.

<sup>121</sup> Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. - Samarqand, «SamDU», 2020. 173-174- betlar

<sup>122</sup> Sardor U. Importance of Rural Tourism Development in Uzbekistan //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 135-139.

<sup>123</sup> Usmonov S. O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishning ahamiyati //international conferences. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 832-837.

birinchi navbatda, turizmning rekreatsion, madaniy, ixtisoslashgan (ovchilik, baliqchilik) kabi turlari bilan chambarchas bog‘liq.

Bularning barchasini qishloq turizmi o‘z ichiga olib, an’anaviy turistik mahsulotlarga bo‘lgan talabni oshirishga xizmat qiluvchi kompleks turlarni tashkil qilishga asos bo‘ladi. Yevropa Ittifoqi tomonidan qishloq turizmini rivojlantirishga qaratilgan siyosiy-iqtisodiy islohotlar yaqin yillar ichida o‘zining samarasini berdi.<sup>124</sup> Turizm industriyasini ushbu tarmog‘ini yuqori sur‘atlarda rivojlantirish uchun, bir qator davlatlar agroturizm to‘g‘risidagi qonunlarni qabul qilgan. Jumladan, Italiyada - Agroturizm to‘g‘risidagi qonun 1985-yilda qabul qilingan bo‘lib, u mamlakatda qishloq turizmini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga mustahkam zamin yaratgan. Qonun qabul qilingandan so‘ng 10 yil ichida Italiya qishloqlarida dam oluvchi sayyohlar soni 1743 barobarga oshgan.

Shuningdek, ko‘pchilik Yevropa davlatlarida agroturizmni rivojlantirish va samarali tashkil qilish bo‘yicha uzoq muddatli strategik ahamiyatga ega bo‘lgan dasturlar qabul qilingan<sup>125</sup>. Qishloq turizmini rivojlanishida yana bir muhim bo‘lgan omillardan bir agroturistik mahsulotlar, o‘rta daromadga ega iste‘molchilar talabini qondirayotganligi bilan izohlanadi. Bugungi kunda ushbu iste‘molchilar Yevropa agroturizmi segmentida juda katta ulushni tashkil qiladi.

UNWTO tashabbusi bilan eng yaxshi turizm qishloqlari turizmni ijobiy kuchga aylantirishga qaratilgan bo‘lib ular quyidagi mezonlarga asoslanadi:

1. Madaniy va tabiiy resurslar
2. Madaniy boyliklarni targ‘ib qilish va saqlash
3. Iqtisodiy barqarorlik
4. Ijtimoiy barqarorlik
5. Ekologik barqarorlik
6. Turizmni rivojlantirish va qiymat zanjiri integratsiyasi
7. Turizmni boshqarish va ustuvorliklari
8. Infratuzilma va ulanish
9. Salomatlik, xavfsizlik va xavfsizlik

### **Xulosa**

Qishloq turizmining ahamiyatli ekanligi uning rivojlantirish masalalarini tadqiq etish jarayonida bir qancha imkoniyatlarni taqdim etishi o‘ganildi. Daromadlar va rivojlanishdagi mintaqaviy tengsizliklarni kamaytirish, qishloq aholisining kamayishiga qarshi kurash, gender tengligi va ayollar va yoshlar imkoniyatlarini kengaytirish, qishloqni o‘zgartirishni rag‘batlantirish, infratuzilmani, moliya va investitsiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash, ilg‘or innovatsiyalar va raqamlashtirish, mahsulotni ishlab chiqish va qiymat zanjiri integratsiyasida innovatsiyalarni qo‘llash, barqaror, adolatli va bardoshli oziq-ovqat o‘rtasidagi munosabatlarni rag‘batlantirish, tizimlar va xilma-xillikni, madaniy meros va mahalliy gastronomiyaning rivojlanishini, tabiiy va madaniy boyliklarni asrashni rivojlantirish, resurslardan samaraliroq foydalanish uchun barqaror

<sup>124</sup> The initiative <https://www.unwto.org/tourism-villages/en/the-initiative/>

<sup>125</sup> Usmonov S. O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishning ahamiyati //international conferences. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 832-837.

amaliyotlarni targ‘ib qilish, ta‘lim va malaka oshirishni kuchaytirish kabi muhim ahamiyatga ega.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 30.04.2022 yildagi PQ-232-son “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-iyuldagi 433-son qaroriga 10-ILOVA “Turizm sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida” Nizom. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. M.Qobulova, I.Ergashev, A.Ergashev “Mintaqaviy turizm va turistik resurslar”
4. N.E.Ibadullayev va boshqalar. “Mintaqaviy turizm” O‘quv qo‘llanma. Samarqand. SamISI. 2018 yil. 98-100-betlar
5. Usmanov M.R. Turizm geografiyasi: o‘quv qo‘llanma. - Samarqand, “SamDU”, 2020. 173-174- betlar
6. The initiative <https://www.unwto.org/tourism-villages/en/the-initiative/>
7. Sardor U. Importance of Rural Tourism Development in Uzbekistan //Central Asian Journal of Innovations on Tourism Management and Finance. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 135-139.
8. Usmonov S. O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishning ahamiyati //international conferences. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 832-837.
9. Usmonov, S., Boqibilloev, U.J. (2023). O‘zbekistonda xalqaro turizmning rivojlanish xususiyatlari va yo‘nalishlari. Umumjahon fanlari bo‘yicha ta’lim tadqiqotlari, 2 (9), 272–277.
10. Usmonov S., Toshtemirova I. Z. (2023). Hududlarning barqaror iqtisodiy o‘shida noqishloq xo‘jalik faoliyatlarining ahamiyati va unda qishloq turizmining o‘rni. Olim, 1 (25), 65–72.
11. Sardor Usmonov. O‘zbekistonda qishloq turizmini rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish // Academic research in educational sciences. 2023. №SamTSAU Conference. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-qishloq-turizmini-rivojlantirishda-xalqarotajribalardan-foydalanish>
12. Ibragimov, Lutfullo. (2023). the significance of using international experiences in the development of rural tourism in Uzbekistan. 42-48. 10.31149/ijefsd.v5i7.4609.
13. Usmonov S. O‘zbekistonda qishloq turizmi. Journal of Economy, Tourism and Service Vol. 2, No. 12, 2023 ISSN:2181-435X